



DEFEKTOLOGLAR FIDOIY-KASB EGALARI

Halimova Ozoda Ma'murjon qizi

Namangan Davlat Universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti

Defektologiya (Logopediya) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada defektologiya sohasi umuman olganda mamlakatimizda defektologlarga berilayotgan e'tibor masalalari yoritilgan. Maqolada shuningdek, defektologiyaning ta'lif sohasidagi o'rni, yutuqlari, kamchiliklari, muammolari haqida fikrlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. "Ta'lif to'grisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" defektologiya, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, jismoniy, ruhiy, belgilar.

ДЕФЕКТОЛОГИ-БЕСКОРЫСТНЫЕ ПРОФЕССИНАЛЫ

Аннотация: В данной статье рассматривается область дефектологии, в целом то внимание, которое уделяется дефектологам в нашем стране. В статье также представлены взгляды на роль достижения недостатки и проблемы дефектологии в сфере образования.

Ключевые слова: Закон "Об образовании", "Национальная программа обучения" дефектология глухая педагогика, тифлопедагогика, олигофренопедагогика, логопедия.

DEFEKTOLOGISTS ARE SELFLESS PROFESSIONALS

Abctract: Think article covers the field of defectology, in general, the attention paid to defectologists in our country. The article also presents vidents on the role, achievements, shortcomings and problems of defectology in the field of education.

Keywords: Law "On education", "National Training Programm" Defectology, Deaf pedagogy, tymphopedagogy, oligophrenopedagogy, speech pathologin.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish yoshlarni vatan uchun xizmat qiladigan, bilimli, izlanuvchan, komil inson bo'lib ulg'ayishlariga katta umid qaraladi. Dunyo mamlakatlari ichida o'zining rivojlanish yo'li bilan tanilayotgan bizning O'zbekistonimizda ham yoshlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni savodli, izlanuvchan, vatan uchun xizmat qiladigan inson bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning hissalari juda kattadir. Buning isboti sifatida prezidentimizning quydagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Bizning asosiy maqsadimiz yoshlarni sifatli ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish ularning o'z qobilyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat."

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" da ham ko'rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg'un kamoloti o'z



qobilyati hamda malakalarini ro'yobga chiqarish, tafakkurni rivojlantirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni harakatlantiruvchi kuchdir. Bu hujjatlarda komil inson va barkamol shaxs tayyorlash masalalariga alohida urg'u berilgan. Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini ayniqsa, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun yurtimizda defektologlarga juda katta e'tibor berilmoqda. Chunki barkamol shaxsni tarbiyalashda defektologlarning hissasi beqiyosdir. Mana biz defektologlar haqida yuqorida gapirdik. Endi juda ko'pchillikda defektolog kim, u qanday kasb kabi bir qator savollar tug'ilishi mumkin. Haqiqatdan defektolog kim? Defektologiya nima?

Defektologiya- jismoniy va ruhiy kamchliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rGANADIGAN, ularning ta'lIM- tarbiyasi bilan shug'ullanadigan soxa. Tushunarli qilib aytadigan bo'lsak ,imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalarni ta'lIM- tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanadigan soxa hisoblanadi. Endi defektologiya so'zini lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z ya'ni defektologiya so'zi lotincha "defekt"- "kamchilik", "nuqson", "logos"- "ta'limot", "fan" degan ma'nolarni anglatadi. Defektologianing mavzu baxsi alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ta'lIM- tarbiyasi, kamol topishidagi ijtimoiy jarayonlardir. Bu soxani mutaxassislar defektologlar deb ataladi. Defektologlar eng avvalo, bolaning eng yaqin do'sti, maslahatchisi, psixologi, pedagogi, shifokori bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqqan holda biz bu kasb egalarini pedagog deb ham, shifokor deb ham qabul qilishimiz mumkin. Ya'ni, defektologiya tibbiyot va pedagogikani birlashtiruvchi soxadir.

Defektolog kasbi judayam mas'uliyatli, murakkab kasb hisoblanadi. Chunki bu kasb egalari o'zining muammolaridan tashqari boshqalarning muammolarini ham yechimiga yordam beradi. Eng asosiysi, defektologlar har bir bolaga, uning muammosiga jiddiy qarashi lozim. Bundan tashqari mutaxassis nafaqat bola bilan, balki ularning ota-onalari bilan muomala qilishda ehtiyyotkorlik qilishi va iltifot ko'rsatishi lozim.

Defektologiya haqida ozgina bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'ldik. Endi defektologiyani tarmoqlari bilan tanishib chiqamiz. Defektologiya qanday nuqsonli bolalar bilan ishlashiga ko'ra 4 ta tarmoqqa ajratiladi:

- 1.Oligofrenopedagogika
- 2.Surdopedagogika
- 3.Logopediya
- 4.Tiflopedagogika

Endi defektologiyani yuqorida keltirgan defektologiyani har bir tarmog'i bilan alohida-alohida, qisqacha tanishib o'tamiz.

Defektologianing birinchi tarmog'i Oligofrenopedagogika hisoblanib, bu soxada aqli zaif bolalarni tarbiyalash, o'qitish bilan shug'ullaniladi. Oligofrenopedagogika defektologiyaning bir qismi hisoblanadi. Bu so'zni lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "oligos"- "kam", "fren"- "aql" ya'ni aqli zaif bolalar bilan shug'ullanuvchi defektologianing bir bo'limidir.



Ikkinchchi tarmog'i Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi, tarbiyasi, o'qitish masalalari bilan shug'llaniladi. Surdopedagogika atamisini lug'aviy izohlaydigan bo'lsak, lotinchada "surdus"-“kar”, “gung” degan ma'nolarni anglatadi.

Uchinchi tarmog'i esa Logopediya hisoblanib, bu soxada nutq buzilishlari va ularni etiologiyasi,fiziologiyasi,anatomiyasi hamda bunday nutq buzilishlarini korreksiyalashni, oldini olishni o'rganiladi.Logopediyani lug'aviy tarjimasi esa “logos”- “nutq”, “so'z” “padeo”-“tarbiyalayman”, “o'qitaman” ya'ni to'g'ri nutqni tarbiyalash ma'nosini anglatadi.

Defektologiyani so'nggi tarmog'i Tiflopedagogika soxasida esa ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullaniladi. Tiflopedagogika yunoncha so'zdan olingan bo'lib “tiflos”- “ko'r”, “so'qir” degan ma'nolarni anglatadi.

Mana defektologiyaning 4 ta mustaqil tarmog'i bilan qisqacha, biroz bo'lsa ham tanishib chiqdik. Ko'rib turganimizdek defektolog kasbi juda ham mas'uliyatli va murakkab kasb hisoblanadi. Chunki defektologlar sog'lom emas, balki nuqsonli, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Bu esa juda murakkab jarayon hisoblanadi.

Endi tariximizga aniqrog'i defektologiyaning tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1920-yilga qadar bizning yurtimizda defektologiya sohasida aytarli ishlar qilinmagan. Shu bois bu sohaning rivojlanishida rus va chet el defektologiyasidan ancha orqada qoldik.

1929-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo'mitasi raisi Y.Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida mакtab ochildi. Chunki o'sha paytda mamlakatimizda avj olib ketgan yuqumli kasalliklar ochlik, tozalikka rioya qilmaslik va shunga o'xshash bir qator sabablar bolalarda yuqori darajadagi nuqsonlilikni keltirib chiqqargan.

1992-yilda nuqsonli bolalar uchun mo'ljallangan maxsus maktablar soni 77 taga yetib, unda tarbiyalanuvchilar soni 20000 ga yaqinlashib qoldi. Bunday nuqsonli bolalar bilan shug'ullanish uchun esa defektolog mutaxassislar kerak bo'lgan.

Odatda oliy defektologlar Maskva, Leningrat, Kiiev va boshqa shaharlarda o'qitilar edi. Bizni yurtimizda esa defektoglarni o'qitishga, defektolog mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj juda katta edi. Nihoyat juda ko'p mehnat va sa'y-harakatlardan so'ng markaziy Osiyoda ham 1967-yilda ilk bor defektologlar tayyorlash boshlandi. Bu faoliyat dastlab Toshkentdag'i Nizomiy nomli pedagogika institutida boshlangan va keyinchalik bu soxa rivojlanib kadrlar tayyorlash tez sur'atlarda oshdi. Hozirgi kunga kelib yurtimizda defektologiya soxasi ancha rivojlandi. Defektolog mutaxassislar soni esa oshdi. Yuqorida aytkanimizdek defektolog ham pedagog, ham shifokordir. Aslini olganda bola salomatligi uchun pedagog shifokordan ko'ra ko'proq narsani qilishga qodir. Ya'ni pedagog o'z faoliyatida bolalarning ta'limi tarbiyasi sog'ligiga zarar yetkazmasa bola yaxshi ta'lim-tarbiyaga ega bo'ladi. Axir sog'lom bolagina ta'lim dasturini muvafacqiyatli va to'liq o'zlashtirishi mumkin. Shuningdek defektolog pedagog sifatida yaxshi ta'lim-tarbiya berishi, shifokor sifatida uning salomatligiga e'tiborli bo'lishi lozim. Defektolog o'z kasbini mutaxassis bo'lsa, har bir bolani nuqsoniga to'g'ri yondoshsa boladagi nuqsonlar bartaraf bo'ladi. Defektologning sa'y-harakatlari natijasida bola jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Defektologlar-fidoiy kasb egalari.



O'qituvchi-pedagoglar payti kelganda sog'lom bolani ta'lim-tarbiyasida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Lekin defektologlar nuqsonli imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Bolani o'z tengqurlari sog'lom tengdoshlari qatoriga qo'shish jamiyatda o'z o'rnni topishlari uchun yordam berishadi. Bu esa defektologlardan fidoiylikni talab qiladi. Shuning uchun ham defektologlar fidoiy kasb egalaridir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tmoqchimanki har birimiz kelajakda ota-onas bo'lamic, farzandlarimiz bo'ladi.

Ko'rib turganimizdek bugungi kunda bolalar salomatligi har qachongidan ham dolzarbdir. Shuning uchun har birimiz iloji boricha sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yaylik. Biz sog'lom bo'lsakgina kelajak avlod sog'lom bo'ladi. Sog'lom kelajak avlodni yaratib yurt rivojiga o'z hissamizni qo'shaylik. Zero sog'lom avlod-kelajak poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.L.R.Mo'minova, N.Z.Abidova "Maxsus psixologiya" "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent-2013
- 2.P.M.Po'latova "Maxsus pedagogika" G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2005
- 3.P.M.Po'latova va boshqalar "Maxsus pedagogika" Toshkent-2014
4. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
5. M. Ayupova "Logopediya" 2007-yil.
6. "Logopediya" (I. Mo'minova, M. Ayupova)-T.